

MEROS ILMINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islam
instituti “Aqoid va fiqhiy fanlar” kafedrasi
o‘qituvchisi Djumanov Abdulhamid*

“Faroiz” so’zi “farz” so’zining jamidir. “Farz” so’zi lug’atda “o’lchov”, “kesish” va “bayon qilish” ma’nolarini bildiradi²³.

Shariatimiz farz amallari “farz” deb atalishi o’lchangan, bayon qilingan bo’lgani uchundir. Meros va undan tegadigan ma’lum nasibaga “farz” deb aytilishining sababi esa unda merosni o’lchash shariat tomonidan bayon qilinib, har bir merosxo’rning haqi aniq ko’rsatilgani uchundir²⁴.

Yana merosdan tegadigan ma’lum nasibaga ham “farz” deyiladi.

Meros deganda o’lgan odamning ortidan qolgan narsani olishga biror kishining qolishi tushuniladi.

Fiqhiy tushuncha bo'yicha, mayyitning ortidan shar'iy vorisga qolgan mol va huquqlarga “meros” deyiladi²⁵.

Meros so’zi “varasa-yarisu” fe’lidan olingan bo’lib, ma’naviy yoki moliyaviy haqqa ega bo’lish ma’nosidadir. Merosga “al-Mu’jamul vasit”da “ O’lganidan so’ng moli unga o’tdi” deb ma’no berilgan. Arab tilida bir so’z bir nechta ma’noda qo’llaniladi. Meros so’zi ham lug’atda va istilohda bir qancha ma’nolarni ifoda qiladi.

“Meros” so’zining lug’atdagi yana bir ma’nosi borki, u bir narsaning bir kishidan ikkinchi kishiga, bir qavmdan ikkinchi qavmga o’tishini anglatadi. Bu narsa faqat mol-mulkka tegishli bo’lmay, ilm, shonu-sharaf va boshqa ma’nolarni ham o’z ichiga oladi.

Meros ilmi Faroiz ilmi deb ham ataladi. Faroiz ilmi deb nomlanishiga sabab, Alloh taolo Qur’oni Karimda meros hukmlarini bayon qilib: “Bu taqsim Alloh taolodan farz qilingandir”, deb marhamat qilganidir.

“Fariza” so’zining ko’pligi “faroiz” bo’lib lug’atda bir nechta ma’nolarda keladi. Ya’ni “burch”, “vazifa”, “ulush”, “kesmoq”, “o’lchamoq”, “tushirmoq”, “ochiq bayon qilib bermoq”, “belgilab qo’yilgan farz ulushi” kabi ma’nolarda keladi. Shar’iy istilohda esa meros oladigan va olmaydigan kishilar, shuningdek, meros oluvchilarning meros miqdorini bildiruvchi ilmga faroiz deyiladi.

²³ Ibrohim Unays, Abdulhalim Muntasir, Atiyya Sovalihiy, Muhammad Xalafulloh Ahmad. Mu’jamul vasit. (Shahar ko’rsatilmagan): Maktabatush shuruquq davliyya, 2004. – S. 864.

²⁴ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Faroiz va vasiyatlar. – T.: Sharq, 2008. – B. 7.

²⁵ O’zbekiston musulmonlari idorasi. Faroiz fanidan ma’ruzalar matni kitobi. – T.: Movarounnahr, 2000. – B. 9; Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Faroiz va vasiyatlar. – T.: Sharq, 2008. – B. 7; Sirojiddin Sajovandiy Sharhul faroizis sirojiyya. – Lubnan. Daru tahqiqil kitab, 2021. – S. 29.

Meros ilmi esa har bir merosxo'rning qolgan merosdagi mol va huquqlaridan tegadigan nasibasini aniqlab beradigan fiqhiy va hisobiy qoidalardir.

Hanafiy ulamolardan "Durrul Muxtor" kitobining sohiblari meros ilmini quyidagicha ta'riflaydilar.

"Merosxo'rlardan har birining tarika va huquqlaridagi haqini aniqlab beradigan fiqh va hisob usullarini o'z ichiga olgan ilm meros ilmidir²⁶".

Shar'iy istilohda esa, meros mulkiyatning vafot etgan kishidan uning tirik merosxo'rlariga o'tishini bildiradi. Mulkiyat mol-mulk ko'chmas mulk va shar'iy haq-huquqlar bo'lishi mumkin.

Shar'iy istilohda avval ham aytilganidek, o'lgan kishining ortidan qolgan meros tarika, ya'ni, tark qilingan narsa, deyiladi. Bunda o'lgan kishidan keyin qolgan mol-mulk, ko'chmas mulk, shar'iy huquqlar, uning qarzi kabi narsalar ko'zda tutiladi.

Meros ilmining asosiy dalil va hujjatlari Qur'oni karim, sunnat va ijmodan olingan. Bu ilmda qiyosga o'rinn qolmagan.

Qur'oni karimda meros haqida Niso surasida uchta, Anfol surasida bitta oyat kelgan.

Payg'ambarimiz alayhissalomning sunnatlarida ham bu mavzu bo'yicha bir necha hadisi shariflar vorid bo'lgan.

Ijmoga kelsak, sahobai kiromlar buvining merosi haqida ijmo qilganlar.

Meros ilmining samarasi va foydasi shuki, uni o'rgangan odam merosni haqdorlariga taqsim qilish malakasiga ega bo'ladi. Bu ilmning bilimdoni "Faroiziy" deb nomlanadi²⁷.

Meros ilmining g'oyasi tarikadan har bir haq egasiga o'z haqini yetkazishdir.

Meros ilmi fiqh ilmining sho'balaridan biridir. Meros ilmiga Alloh taoloning o'zi asos solgandir. Bu ilmning fazli juda ham ulug'dir. Uni ilmning yarmi deganlar ham bor.

Merosning ruknlari. "Rukn" – o'zi bir voqe'likning ajralmas qismi bo'lgan holda uningsiz o'sha voqe'lik vujudga kelmaydigan narsadir. Masalan, namozda qiro'at qilish namozning ruknidir. Qiro'at qilish namozning ajralmas qismi bo'lib, qiro'atsiz namoz – namoz hukmida bo'lmaydi. Merosning ruknlari deganda – ularsiz meros qoldirish va meros olish vujudga kelmaydigan, merosning ajralmas qismi bo'lgan narsalar ko'zda tutiladi.

Merosning ruknlari uchta bo'lib, ular quyidagilar:

²⁶ Muhammad Amiyn Ibn Obidiyn. Roddul Muxtor 'ala durril Muxtor. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 1994. – S. 79.

²⁷ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Faroiz va vasiyatlar. – T.: Sharq, 2008. – B. 7.

1. Meros qoldiruvchi. U vafot topgan inson bo'lib, o'zidan qanchadir miqdorda meros va merosxo'r qoldirgan bo'ladi.

2. Merosxo'r. Meros qoldiruvchining vafotidan keyin hayot bo'lgan yoki hayot bo'lganning hukmida bo'lgan merosga haqdar musulmon kishi. Shar'iyatda belgilangan merosxo'r largina merosxo'r hisoblanadi. Hech kim, hatto, meros qoldirayotgan inson ham "falonchi merosxo'r bo'lsin" deb ayta olmaydi. Meros qoldiruvchining vasiyati qoldirgan molining uchdan biri ila o'taladi, qolgani merosxo'r larga shar'iyat bo'yicha taqsim qilib beriladi.

3. Meros bo'lib qoluvchi mol-mulk va shar'iy huquqlar²⁸. Meros bo'lib qoluvchi mol-mulk va shar'iy huquqlarni meros ilmida "tarika", ya'ni merosxo'rlar uchun tark etib ketilgan narsa deydilar. Quyida meros bo'lib qoluvchi mol-mulk va shar'iy huquqlarni "tarika" deb nomlaymiz. "Shar'iy huquqlar" deganda – savdo moli aybli chiqqanida ixtiyor qilish sharti, qozi tomonidan belgilangan qasos olish haqqi, qarzni olish uchun garovga qo'yilgan narsani ushlab turish haqqi kabilar tushuniladi. Ammo barcha shar'iy huquqlar ham meros bo'lib qolavermaydi. Masalan, savdoni muayyan muddatda yurgizishni yoki to'xtatishni ixtiyor qilish sharti, savdo molini sotib olgach ko'rish sharti va ijara shartnomasi kabilar meros bo'lib o'tmaydi. Mazkur uch narsa merosning ruknlaridir. Ulardan birortasi bo'lmasa ham, meros qoldirish va meros olish vujudga kelmaydi²⁹.

Merosning shartlari. "Shart" – shunday bir narsaki, agar u mavjud bo'lmasa, unga bog'liq voqe'lik vujudga kelmaydi va u mavjud bo'lsa, o'sha voqe'lik mavjud bo'lishi ham, mavjud bo'lmasligi ham mumkindir. Masalan, savdoning sharti – savdo qilayotgan kishining oqil bo'lmoqligi. Agar savdo qilayotgan kishi oqil bo'lmasa, savdo joriy bo'lmaydi. Agar savdo qilayotgan kishi oqil bo'lsa, savdo joriy bo'lishi mumkin, ammo boshqa bir sabab ila joriy bo'lmasligi ham mumkin.

Merosda uchta shart bor:

1. Meros qoldiruvchining o'limi.
2. Meros qoldiruvchining vafotidan so'ng merosxo'rning hayot bo'lishi.
3. Meros oluvchining meros qoldiruvchiga nisbatan kim ekanligi aniq bo'lishi va nasabi ta'yin bo'lishi³⁰.

Meros qoldiruvchining o'limi. Uning vafoti "haqiqiy vafot" yoki "hukmiy vafot" yoki "taqdiriy vafot" deb qayd etiladi. "Haqiqiy vafot" deganda insonning biologik jihatdan o'lishi, uning hayotdan ko'z yumishi tushuniladi. "Hukmiy

²⁸ O'sha manba – B. 10; Sirojiddin Sajovandiy Sharhul faroizis sirojiyya. – Lubnan: Daru tahqiqil kitab, 2021. – S. 43.

²⁹ Sirojiddin Sajovandiy. Sharhul faroizis sirojiyya. – Lubnan: Daru tahqiqil kitab, 2021. – S. 29; Nosir ibn Muhammad ibn Mushril G'omidiy. Al-xulasotu fi ilmil faroiz. – Makkai mukarrama: Daru toyibatil xodro, 2018. – B. 112.

³⁰ Sirojiddin Sajovandiy. Sharhul faroizis sirojiyya. – Lubnan: Daru tahqiqil kitab, 2021. – S. 24; Nosir ibn Muhammad ibn Mushril G'omidiy. Al-xulasotu fi ilmil faroiz. – Makkai mukarrama: Daru toyibatil xodro, 2018. – S. 106.

vafot” deganda insonning yo’qolib qolganidan so’ng – o’zi ham, jasadi ham topilmasligi, shundan so’ng qozi uni vafot topgan deb hukm qilishi yoki tirik holida dinidan qaytishi va kofir bo’lib “dorul- harb”ga ketishi tushuniladi.

“Taqdiriy vafot” deganda – onasiga nisbatan jinoyat qilinganda tushib qolgan homila tushuniladi. “Onasiga nisbatan jinoyat qilish” deganda homilador ayolni urish, qattiq qo’rqitish tushuniladi. Hanafiy mazhabida bunday go’dak tana a’zolari ko’rinib, bilinib qolgan bo’lsa, meros oladi va meros qoldiradi. U tug’ilganda onasi tirik bo’ladimi yoki vafot topgan bo’ladimi farqi yo’q. Zero, jinoyat vaqtida ona ham, bola ham mavjud edi. Meros qoldiruvchining vafotidan so’ng merosxo’rning hayot bo’lishi. Bu holat ikki ko’rinishda bo’ladi: “haqiqiy” va “taqdiriy”.

“Haqiqiy hayot” – insonning tirik bo’lib odamlar orasida yurishidir. “Taqdiriy hayot” deb meros qoldiruvchi vafot topishidan avval onaning qornida paydo bo’lgan homilaga aytildi va uning tug’ilishi shart qilinadi. Meros qoldiruvchining vafoti vaqtida merosxo’r tirik bo’lganmi yoki yo’qmi aniq bo’lmasa, u tarikadan hech narsaga haqdor bo’lmaydi. Bu holat qarindoshlarga bir vaqtda o’lim yetishi ila yuzaga kelishi mumkin. Masalan, kemada birgalikda cho’kib ketish, avtohalokatga birgalikda uchrash va hokazolar. Agar shunday holatda bir-birlariga merosxo’r bo’lishi kerak bo’lgan yaqinlarning qay biri avval vafot etgani bilinmasa, ular o’zaro meros olmaydilar. Ularning meroslari hayot bo’lgan yoki ularning o’limidan so’ng qanchadir muddat bo’lsa ham hayot bo’lgan haqdlarga shar’iyatga muvofiq bo’lib beriladi. Meros oluvchining meros qoldiruvchiga nisbatan kim ekanligi aniq bo’lishi va nasabi ta’yin bo’lishi. Masalan, bir kishi vafot etgach ortidan qarindoshi deb tanilgan odam qoldi. Ammo o’sha qarindoshning mayyitga nisbatan qanday qarindosh ekanligi, yaqinlik darajasi noma’lum. Bu holatda u merosdan ulush olmaydi. Shuningdek, zino sababidan dunyoga kelgan farzand – shar’iy jihatdan nasabi bo’lmaganligi sababidan meros olmaydi. Ayol homilador yoki tug’gan holida o’sha farzandga nisbatan o’zaro li’on aytishgan er-xotinning farzandi ham ota tarafdan nasabi bo’lmagani uchun ota tarafdan meros olmaydi va ota tarafga meros qoldirmaydi. U ona taraflama meros oladi va qoldiradi.

Meros olish sabablari. “Sabab” – lug’atda u tufayli boshqa narsaga erishiladagan narsadir. Masalan, olov sababidan o’tin yonadi. Demak o’tinning yonishiga sabab – olov. Sababning shariyatdagagi ta’rifi quyidagicha: “U mavjud bo’lgani uchun – u sabab bo’layotgan voqe’lik vujudga keladi, u mavjud bo’lmagani uchun – u sabab bo’lishi mumkin bo’lgan voqe’lik uning sababidan vujudga kelmaydi, ammo boshqa sababdan vujudga kelishi mumkin”.

Meros olishning uchta sababi bor, ular:

1. Nasab (qarindoshlik).

2. Nikoh.

3. Valo (hukmiy qarindoshlik)³¹.

Meros olishning avvalgi sababi “nasab”dir. Nasab – lug’atda qarobat, qarindoshlik deganidir. Qarobat deganda tug’ilish tufayli mavjud bo’lgan har qanday o’zaro bog’liqlik tushuniladi. Bunga “farz egalari”, “asabalar” va “zavul arhomlar” kiradi. Qarobatni “haqiqiy nasab” deb ham ataydilar.

“Alloh sizga farzandlaringiz borasida amr etadi: bir o’g’ilga ikki qiz nasibasi. Agar ular ikkitadan ko’p (ayol) bo’lsalar, ularga u (ota) qoldirganning uchdan ikkisi. Agar qiz bitta bo’lsa, unga yarmi. Agar uning bolasi bo’lsa, u qoldirgan narsadan ota-onasining har biriga oltidan bir. Agar uning bolasi bo’lmasa va ota onasi merosxo’r bo’lsa, onasiga uchdan bir. Agar uning aka ukalari bo’lsa, onasiga oltidan bir. U qilgan vasiyat yoki qarzini ado etgandan so’ng...”³²

Mayyitga nasab jihatidan bog’langan inson merosga haqdorlar qatorida bo’ladi.

Meros olishning ikkinchi sababi nikohdir. Nikoh deganda shar’iy durust nikoh tushuniladi. Bunda er-xotin orasida sahih xilvat bo’lganmi yoki yo’qmi farqi yo’qdir. Botil va fosid nikohda meros olish va qoldirish joriy bo’lmaydi.

Nikoh orqali meros olishga quyidagi oyat dalildir:

“Sizlarga xotinlaringiz qoldirgan narsaning – agar ularning bolasi bo’lmasa – yarmi tegadi. Agar ularning bolasi bo’lsa, sizga ular qoldirgan narsaning choragi tegadi. Ular qilgan vasiyatni yoki qarzini ado etgandan so’ng. Ularga siz qoldirgan narsaning – agar bolangiz bo’lmasa – choragi tegadi. Agar bolangiz bo’lsa, ularga siz qoldirgan narsaning sakkizdan biri tegadi. Siz qilgan vasiyatni yoki qarzni ado etgandan so’ng”³³. Demak, er xotinidan, xotin eridan meros oladi. Meros olishning uchinchi sababi “valo”dir. Valo deganda qullikdan ozod qilish ila vujudga keluvchi hukmiy qarobat tushuniladi. Buni yana “hukmiy nasab” deb ham ataydilar. Xoja o’z qulini ozod qilgach, o’sha xoja unga merosxo’r bo’ladi. Bir kishi vafot etsa va uning bir vaqtlar uni ozod qilgan xojasi, ya’ni mavlosidan boshqa hech kimi bo’lmasa, u qoldirgan meros o’sha xojaga bo’ladi. Valo sababidan merosxo’r bo’lishga quyidagi ikki hadis dalil bo’ladi: Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) joriya Barira haqida: “Valo (hukmiy qarindoshlik) ozod qilgan kishiga bo’ladi” dedilar³⁴. (Buxoriy rivoyati).

Boshqa hadisda Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) quyidagicha marhamat qilganlar:

³¹ Nosir ibn Muhammad ibn Mushril G’omidiy. Al-xulasotu fi ilmil faroiz. – Makkai mukarrama: Daru toyyibatil xodro, 2018. – S. 127.

³² Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – T: Sano-standart, 2021. – B. 78.

³³ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – T: Sano-standart, 2021. – B. 78.

³⁴ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sohibul Buxoriy. – Lubnan: Muassisatur risalatin nashiruna, 2019. – S. 692.

“Valo (hukmiy qarindoshlik) nasab kabi bir parcha etdir” (Shofe’iy va Ibn Hibbon rivoyatlari). Valoda faqat ozod qilgan taraf merosxo’r bo’ladi. Ozod qilingan taraf merosxo’r bo’la olmaydi. Zero, ozod qilish, boshqacha qilib aytganda hayotga qaytadan keltirish, ozod qilgan tarafdan sodir bo’ladi, xolos.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR :

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va o’zbek tilidagi ma’nolar tarjimasi. – T.: Sharq, 2011. – 640 b.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – T: Sano-standart, 2021. – 624 b.
3. Shayx Muhammad Ali Sobuniy. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasi. Islom shariatida meros ilmi. Qur’on va sunnat asosida. – T.: Hilol-Nashr, 2022. – 232 b.
4. Shayx Sirojiddin Muhammad ibn Muhammad Abdurroshid Sajovandiy. Assirojiy fil miyros – Bayrut: Al-Bushro, 2022. – 190 b.
5. Muhammad Ali Sobuniy. Al-mavaris fish-shariatil Islamiyya fi dov'il kitabi vas sunna. – Lubnan: (Nashriyot keltirilmagan), – 783 b.
6. Ahmad Nahor Zomil. Al-Muxtasar fi ilmil faroiz val mavaris alal mazhabil hanafiy. (Shahar va nashriyot keltirilmagan), – 351 b.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – J. XII. – T.: Hilol-Nashr, 2022. – 203 b.
8. Sirojiddin Sajovandiy. Sharhul faroizis sirojiyya. – Lubnan: Daru tahqiqil kitab, 2021. – 320 b.
9. O’zbekiston musulmonlari idorasi. Faroiz fanidan ma’ruzalar matni kitobi. – T.: Movarounnahr, 2000. – 116 b.
10. Muhammad Amiyn Ibn Obidiyn . Roddul Muxtor ala Durril Muxtor, Qohira: Dorul kutubil ilmiyya, 1966. – 679 b.
11. Nosir ibn Muhammad ibn Mushril G’omidiy. Al-xulasotu fi ilmil faroiz. – Makkai mukarrama: Daru toyibatil xodro, 2018. – 812 b.
12. Muhammad ibn Solih ibn Muhammad Asimin. Tas’hilul faroiz. (Shahar keltirilmagan) Daru ibn Javziy, 2006. – 135 b.
13. Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad G’azzoliy Damashqiy. Sharhul fusulil muhimma fi mavarisil umma. (Shahar keltirilmagan) Darul asima, 2004. – 728 b.
14. Faysal ibn Abdulaziz. Al-hujajul qotiatu fil mavarisil vaquia. – Saudiya: Daru kunuz Ishbiliya, 2006. – 73 b.